2026-yil
8-son

FAN VA TA’LIM YANGILIKLARI

ILMIY - METODIK

JURNALI

saen.uz

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI

2026-yil
8-son

Bosh muharrir:
Shoumarov G‘ayrat Bahromovich, psixologiya fanlari doktori, akademik

Bosh muharrir o‘rinbosari:
Qodirov Umarali Do‘stqobilovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Mas’ul kotib:
Muqimov Alisher

Texnik muharrir:
Qarshiyev Jamshid Murotaliyevich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.

TAHRIR HAY’ATI:

01.00.00 – FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI
Ayupov Shavkat Abdullayevich, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
A’zamov Abdulla, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
Zohidov Erkin A’zamovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

02.00.00 – KIMYO FANLARI
Normaxamatov Nodirali Soxobataliyevich, kimyo fanlar doktori, professor
Tojibayev Komiljon Sharobitdinovich, kimyo fanlar doktori, akademik

03.00.00 – BIOLOGIYA FANLARI
Abdurahmonov Ibrohim Yo‘lchiyevich, biologiya fanlari doktori, akademik
Sulaymonov Botirjon Abdushukurovich, biologiya fanlari doktori, akademik

04.00.00 – GEOLOGIYA-MINERALOGIYA FANLARI
Fayziyev Abdulhaq Radjabovich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor
Husanov Sultonboy To‘xtayevich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor

05.00.00 – TEXNIKA FANLARI
Allayev Qahramon Rahimovich, texnika fanlari doktori, akademik
Majidov Inom Urishevich, texnika fanlari doktori, professor
Turobjonov Sadritdin Maxamatdinovich, texnika fanlari doktori, akademik
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

06.00.00 – QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI
Namozov Shodmon Ergashovich, qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, akademik
Shoumarov Hikmat Bahromovich, qishloq xo‘jaligi fanlari nomzodi, professor

07.00.00 – TARIX FANLARI
Ziyo Azamat Hamid o‘g‘li, tarix fanlari doktori, akademik
Sagdullayev Anatoliy Sagdullayevich, tarix fanlari doktori, akademik
Yusupova Diloram Yunusovna, tarix fanlari doktori, akademik

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI
Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich, iqtisod fanlari doktori, akademik
Musayev Behzod Anvarovich, iqtisod fanlari nomzodi
To‘xliyev Nurislom, iqtisod fanlari doktori, akademik
G‘ulomov Saidahror Saidahmedovich, iqtisod fanlari doktori, akademik

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
8-son

09.00.00 – FALSAFA FANLARI
Nazarov Qiyom Normirzayevich, falsafa fanlari doktori, professor
Saifnazarov Ismoil Saifnazarovich, falsafa fanlari doktori, professor

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI
Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor
Sirojiddinov Shuhrat Samariddinovich, filologiya fanlari doktori, akademik
Xidirov Rajab Gulmatovich, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (Tojikiston)

11.00.00 – GEOGRAFIYA FANLARI
Nigmatov Asqar Nigmatullayevich, geografiya fanlari doktori, professor
Tojiyeva Zulxumor Nazarovna, geografiya fanlari doktori, professor

12.00.00 – YURIDIK FANLAR
Rustamboyev Mirzayusuf Hakimovich, yuridik fanlar doktori, professor
Saidov Akmal Xolmatovich, yuridik fanlar doktori, akademik
Xolmo'minov Jumanazar Toshtemirovich, yuridik fanlar doktori, professor
Qodirov Bobiromon Bekmurodovich, yuridik fanlar doktori, professor

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI
Djurayev Risboy Haydarovich, pedagogika fanlari doktori, akademik
Ibraimov Xolboy, pedagogika fanlari doktori, akademik
Musurmonova Oynisa, pedagogika fanlari doktori, professor
Umarov Bahrom Norboyevich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

14.00.00 – TIBBIYOT FANLARI
Akilov Xabibulla Ataullayevich, tibbiyot fanlari doktori, professor
Nazirov Feruz Gafurovich, tibbiyot fanlari doktori, akademik

15.00.00 – FARMATSEVTIKA FANLARI
Abdullabekova Viloyat Nurillabekovna, farmatsevtika fanlari doktori, professor
Tulaganov Abduqodir Abdurahmonovich, farmatsevtika fanlari doktori, professor

16.00.00 – VETERINARIYA FANLARI
Daminov Asadullo Suvonovich, veterinariya fanlari doktori, professor
Jabborov Shuhrat Abdumajidovich, veterinariya fanlari doktori, professor
G'afurov Aktam G'afurovich, veterinariya fanlari doktori, professor

17.00.00 – SAN'ATSHUNOSLIK FANLARI
Ahmedova Nigora Rahimovna, sanatshunoslik fanlari doktori, professor
Hakimov Akbar Abdullayevich, san'atshunoslik fanlari doktori, akademik

18.00.00 – ARXITEKTURA
Nozilov Dodo Avazovich, arxitektura fanlari doktori, professor
Uralov Axtam Sindarovich, arxitektura fanlari doktori, professor

19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI
Abdusamatov Hasanboy Usmonjon o'g'li, psixologiya fanlari doktori, professor
Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor
Karimova Vasila Mamanosirovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Halimova Mashraboy Vohidovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Lazar Drajeta, psixologiya fanlari doktori, professor, Belgrad, Serbiya
Karpinskiy Konstantin Viktorovich, psixologiya fanlari doktori, professor, Grodno, Belarussiya
Suletbayeva Ella Serikbayevna, psixologiya fanlari doktori, dotsent

22.00.00 – SOTSIOLOGIYA FANLARI
Bekmurodov Mansur Bobomurodovich, sotsiologiya fanlari doktori, professor
Toshmuhamedova Dilorom Gafurdjanovna, sotsiologiya fanlari doktori

23.00.00 – SIYOSIY FANLAR
Fayzullayev Alisher Omonullayevich, siyosiy fanlar doktori, professor
Hasanov Otabek Abdurashidovich, siyosiy fanlar doktori
Paxrutdinov Shukritdin Ilyasovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Omonov Baxtiyor Axtamovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Quronboyev Qahramon Qo'chqorovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Avazov Komil Xolliyevich, siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori

24.00.00 – ISLOMSHUNOSLIK FANLARI
Ibrohimov Ne'matulla, filologiya fanlari doktori, akademik
Islomov Zohidjon Mahmudovich, filologiya fanlari doktori, professor

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
8-son

UDK 378.147:811.111:37.013

Eshmuratova Jamila Raximberdi qizi,
mustaqil izlanuvchi

INGLIZ TILINI O‘QITISH JARAYONIDA TALABA YOSHLARDA MADANIYATLARARO KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISHNING XORIJIY TAJRIBASI: YEVROPA, SHARQIY VA JANUBI-SHARQIY OSIYO AMALIYOTINING QIYOSIY TAHLILI

Annotatsiya. Maqolada talaba yoshlarda madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini shakllantirish bo‘yicha Yevropa, Sharqiy Osiyo va Janubi-Sharqiy Osiyo universitetlarining tajribasi qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot so‘nggi besh yil davomida nufuzli xalqaro ilmiy jurnallarda e’lon qilingan tadqiqotlarga asoslanib, to‘rtta asosiy savol doirasida olib boriladi: MMKni rivojlantirish maqsadi qanday belgilanadi, qanday mazmun o‘qitiladi, ta’lim jarayonida qanday metod va vositalardan foydalaniladi hamda erishilgan natijalar qanday baholanadi? Tahlil davomida har bir hududga xos yondashuvlarning kuchli va zaif jihatlari aniqlanadi, shuningdek, Yevropa va Osiyo mamlakatlarida qo‘llanilayotgan samarali pedagogik yechimlar qiyosiy tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi, qiyosiy pedagogika, virtual almashinuv, CEFR, lingua franca, oliy ta’lim.

ФОРМИРОВАНИЕ МЕЖКУЛЬТУРНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНЧЕСКОЙ МОЛОДЁЖИ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ПРАКТИК ЕВРОПЫ, ВОСТОЧНОЙ И ЮГО-ВОСТОЧНОЙ АЗИИ

Аннотация. В статье проводится сравнительный анализ опыта университетов Европы, Восточной и Юго-Восточной Азии по формированию межкультурной коммуникативной компетенции у студентов. Исследование основано на работах, опубликованных в авторитетных международных научных журналах за последние пять лет, и структурировано вокруг четырёх основных вопросов: как определяются цели развития межкультурной коммуникативной компетенции (МКК), какое содержание обучения используется, какие методы и средства применяются в образовательном процессе и каким образом оцениваются достигнутые результаты? В ходе анализа выявляются сильные и слабые стороны подходов, характерных для каждого региона, а также проводится сравнительный анализ эффективных педагогических решений, применяемых в странах Европы и Азии.

Ключевые слова: межкультурная коммуникативная компетенция, сравнительная педагогика, виртуальный обмен, CEFR, lingua franca, высшее образование.

DEVELOPING INTERCULTURAL COMPETENCE AMONG UNIVERSITY STUDENTS IN THE PROCESS OF ENGLISH LANGUAGE TEACHING: A COMPARATIVE ANALYSIS OF PRACTICES IN EUROPE, EASTERN AND SOUTHEASTERN ASIA

Abstract. This article provides a comparative analysis of the experience of universities in Europe, Eastern Asia, and Southeast Asia in developing students' intercultural communicative competence. The study draws on research published in reputable international academic journals over the past five years and is structured around four key questions: how are the goals of developing intercultural communicative competence (ICC) defined, what content is taught, which methods and tools are used in the educational process, and how are the outcomes assessed? The analysis identifies the strengths and weaknesses of approaches characteristic of each region and comparatively examines effective pedagogical practices implemented in European and Asian countries.

Keywords: intercultural communicative competence, comparative pedagogy, virtual exchange, CEFR, lingua franca, higher education.

Kirish. Bugungi globallashuv sharoitida xorijiy tillarning, xususan, ingliz tilining xalqaro kommunikatsiya, ta'lim, fan, iqtisodiyot va madaniyatlararo hamkorlikdagi o‘rni tobora ortib bormoqda. Oliy ta'lim tizimida talabalarning xorijiy tillarni o‘rganishga, xalqaro almashinuv dasturlarida ishtirok etishga, xorijiy hamkorlar bilan akademik va kasbiy aloqalar o‘rnatishga bo‘lgan qiziqishi ham kuchaymoqda. Bunday sharoitda chet tilini yuqori darajada bilish faqat grammatik qoidalar va lug‘at boyligini egallash bilan cheklanmaydi. Talaba real kommunikativ vaziyatda boshqa madaniyat vakili bilan muloqotga kirishar ekan, suhbatdoshining kommunikativ odatlari va qadriyatlarini tushunishi, o‘z fikrini tegishli madaniy me'yorlarga muvofiq ifodalashi, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan madaniy tafovutlarni to‘g‘ri talqin qilishi hamda zarur hollarda o‘z madaniyatini xorijiy suhbatdoshga tushuntira olishi talab etiladi.

Mazkur ko‘nikmalar majmuasi zamonaviy xorijiy til ta'limida madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi (MMK) sifatida qaraladi va u til kompetensiyasi bilan bir qatorda mustaqil ta'limiy maqsad sifatida e'tirof etilmoqda [1; 6]. M. Byram tomonidan ishlab chiqilgan modelga ko‘ra, madaniyatlararo kompetensiya bir nechta o‘zaro bog‘liq tarkibiy qismlardan tashkil topadi. Ular madaniyatlar haqidagi bilimlar, ochiqlik va qiziqish, madaniy hodisalarni talqin qilish va qiyoslash ko‘nikmalari, yangi madaniy vaziyatlarda mustaqil harakat qilish qobiliyati hamda o‘z va boshqa madaniyatga tanqidiy va ongli nuqtayi nazardan yondashishni qamrab

oladi [1]. D. Deardorff esa mazkur kompetensiyani bir martalik natija emas, balki munosabat va qadriyatlardan bilim va ko‘nikmalarga, ulardan esa amaliy xulq-atvor natijalariga olib boruvchi uzluksiz rivojlanish jarayoni sifatida talqin qiladi [7].

Shu bilan birga, xalqaro tajribada muayyan ziddiyat kuzatiladi. Ko‘plab o‘qituvchilar madaniyatlararo kompetensiyaning xorijiy til ta’limidagi ahamiyatini e’tirof etsalar-da, real dars amaliyotida madaniy mazmun ko‘pincha asosiy til materialidan keyin qoladigan yoki vaqt imkon bergandagina qo‘llaniladigan qo‘shimcha komponent sifatida namoyon bo‘ladi [4]. Adabiyotlar tahlili ham mmkni maqsadli va tizimli ravishda rivojlantirishga yo‘naltirilgan amaliy tadqiqotlar kutilganidan kamligini ko‘rsatadi [2]. Demak, asosiy muammo madaniyatlararo ta’lim g‘oyasining mavjud emasligida emas, balki uni kundalik dars amaliyotiga samarali integratsiya qilishga imkon beradigan aniq metodik modellar va baholash mexanizmlarining yetarli darajada ishlab chiqilmaganidadir [15].

Mazkur masala O‘zbekiston oliy ta’limi uchun ham dolzarbdir. Xorijiy tillarni o‘qitish sifatini oshirish va xalqaro kommunikatsiyaga tayyor raqobatbardosh kadrlarni shakllantirish davlat ta’lim siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilanmoqda [5]. Biroq talabalarda madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini shakllantirishning milliy ta’lim sharoitlariga moslashtirilgan yaxlit metodik modeli yetarli darajada tizimlashtirilmagan.

Shu nuqtayi nazardan, xalqaro tajribani qiyosiy o‘rganish O‘zbekiston uchun amaliy va nazariy jihatdan muhim ahamiyatga ega. Xususan, turli ta’lim tizimlarida MMK qanday maqsad sifatida belgilanayotgani, qanday mazmun orqali shakllantirilayotgani, qaysi metod va texnologiyalar samarali qo‘llanayotgani hamda natijalar qanday baholanayotganini aniqlash milliy metodik modelni ishlab chiqish uchun muhim asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqotning maqsadi — Yevropa, Sharqiy Osiyo va Janubi-Sharqiy Osiyo universitetlari tajribasi misolida ingliz tilini o‘qitish jarayonida madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini shakllantirishning asosiy yondashuvlarini qiyosiy tahlil qilish hamda ularning O‘zbekiston oliy ta’limi uchun metodik ahamiyatini aniqlashdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot qiyosiy-tahliliy va tavsiflovchi-analitik yondashuvlar asosida olib borildi. Tadqiqotning asosiy materialini madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini shakllantirish, xorijiy til ta’limida madaniy komponentdan foydalanish, virtual almashinuv, o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligi, darsliklar mazmuni hamda baholash masalalariga bag‘ishlangan so‘nggi yillarda e’lon qilingan xalqaro ilmiy tadqiqotlar tashkil etdi [2; 4; 10; 11; 12; 15]. Mazkur manbalar mazmuni va tadqiqot yo‘nalishidan kelib chiqib saralandi hamda ularda ilgari surilgan yondashuvlar o‘zaro qiyosiy tahlil qilindi.

Tadqiqotda Yevropa, Sharqiy Osiyo va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini shakllantirishga doir tajribalar asosiy tahlil obyekti sifatida belgilandi. Ushbu hududlar tajribasini qiyoslashda, avvalo, madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirishdan ko‘zlangan maqsadlarning o‘quv

dasturlarida qanday ifodalangani va kutilayotgan natijalarning qay darajada aniq belgilanganiga e'tibor qaratildi. Shu bilan birga, ta'lim mazmunida talabalarga qanday madaniy bilim va qadriyatlar taqdim etilishi, turli madaniy vaziyatlar qanday yoritilishi hamda talabalarning madaniy farqlarni anglashiga qanday imkoniyatlar yaratilishi ko‘rib chiqildi.

Tahlilning keyingi yo‘nalishi madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirishda qo‘llanilayotgan metod va vositalarni aniqlashga qaratildi. Xususan, kommunikativ va loyiha metodlari, virtual almashinuv, CLIL, refleksiv topshiriqlar hamda boshqa zamonaviy pedagogik texnologiyalarning qo‘llanish xususiyatlari o‘rganildi. Bunda faqat metodning mavjudligi emas, balki uning real ta'lim jarayonida qanday tashkil etilgani va talabaning madaniyatlararo muloqot tajribasiga qanday ta'sir ko‘rsatishi ham hisobga olindi. Shuningdek, MMKni baholash masalasi ham alohida mezon sifatida ko‘rib chiqilib, bilim, munosabat, ko‘nikma va amaliy xulq-atvorni aniqlashda qanday baholash vositalaridan foydalanilayotgani tahlil qilindi.

Mazkur mezonlar asosida uch hudud tajribasining umumiy va o‘ziga xos jihatlari aniqlanib, ularning kuchli hamda muammoli tomonlari qiyoslandi. Tadqiqotning nazariy asosini M. Byramning madaniyatlararo kompetensiya modeli [1], D. Deardorffning kompetensiyani jarayon sifatida talqin qiluvchi modeli [7], CEFR Companion Volume [6] hamda RFCDC konsepsiyasi [8] tashkil etdi. Ushbu nazariy yondashuvlar turli mamlakatlar tajribasini yagona mezonlar asosida tahlil qilish, madaniyatlararo kompetensiyaning mazmuni, shakllanish jarayoni va baholash imkoniyatlarini izchil ko‘rib chiqish uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qildi.

Natijalar. 1. Yevropa tajribasi: aniq maqsad va baholash uyg‘unligi. Yevropa tajribasining asosiy xususiyati madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini umumiy maqsad sifatida emas, balki kuzatiladigan va baholanadigan natijalar orqali ifodalashga intilishdir. 2020-yilda e'lon qilingan CEFR Companion Volume madaniyatlararo vositachilik va kommunikativ faoliyat bilan bog‘liq ko‘nikmalarni batafsil tavsiflovchi deskriptorlarni taqdim etdi [6]. Bu esa “talaba madaniyatni bilishi kerak” kabi umumiy talablar o‘rniga aniq kommunikativ va madaniyatlararo harakatlarni belgilash imkonini berdi. Yana bir muhim yo‘nalish RFCDC konsepsiyasi bo‘lib, unda qadriyatlar, munosabatlar, ko‘nikmalar va bilimlar o‘zaro bog‘liq kompetensiyalar sifatida talqin qilinadi [8]. Yaponiyada o‘tkazilgan tadqiqot ushbu deskriptorlardan baholash vositasi sifatida foydalanish mumkinligini ko‘rsatgan. Shuningdek, Madaniyatlararo uchrashuvlar avtobiografiyasi (AIE) orqali talabalar o‘z madaniyatlararo tajribalarini tahlil qilib, qarashlari va stereotiplarini qayta ko‘rib chiqadilar [9]. Bu MMKni refleksiya va tanqidiy fikrlash orqali ham baholash imkonini beradi.

Yevropada virtual almashinuv ham muhim pedagogik vosita sifatida qo‘llanadi. Talabalar xorijga chiqmagan holda boshqa mamlakatlardagi tengdoshlari bilan onlayn hamkorlik qilib, real madaniyatlararo tajriba orttiradilar [11; 12]. Shu bilan birga, Avstriya darsliklari tahlili madaniy topshiriqlarda yodlashga asoslangan

faoliyatlar ustunligini, qiyoslash va tanqidiy tahlilga yo‘naltirilgan topshiriqlar esa kamligini ko‘rsatgan [10]. Shu sababli kutilayotgan natijalarni avval belgilab, darslik mazmunini ularga moslashtirishga asoslangan “teskari loyihalash” yondashuvi taklif etiladi [15].

Umuman, Yevropa tajribasining kuchli jihati maqsad – mazmun – metod – baholash o‘rtasidagi tizimli bog‘liqlikning shakllanganidadir.

2. Sharqiy Osiyo tajribasi: darslik, o‘quv dasturi va o‘qituvchi omili. Xitoy, Yaponiya va Koreyada MMKning shakllanishi milliy o‘quv dasturlari, darsliklar va baholash tizimi bilan chambarchas bog‘liq. Xitoy darsliklarida ayrim hollarda ingliz-amerika madaniyati, boshqalarida esa milliy madaniyat ustunligi, boshqa madaniyatlarning esa nisbatan kam yoritilishi kuzatiladi. Boshlang‘ich darsliklarda madaniyat ko‘pincha sayyohlik va tasviriy ma’lumotlar orqali berilib, qiyoslash va tanqidiy tahlil imkoniyatlari cheklanishi mumkin. Xitoy va Mongoliya darsliklari tahlili ham madaniy mazmunning davlat ta’lim siyosati bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Koreyada ham o‘quv dasturlarida ko‘p madaniyatlilik va global kompetensiyaga e’tibor kuchaygan bo‘lsa-da, darslik topshiriqlari har doim ham bu maqsadlarga to‘liq mos kelmaydi. Shu sababli o‘quv dasturi, darslik va amaliy topshiriqlar o‘rtasidagi izchillik muhim ahamiyat kasb etadi.

Sharqiy Osiyo tajribasining muhim jihatlaridan biri o‘qituvchi omilidir. Xitoy tajribasi o‘qituvchilarning MMKni darsga yetarlicha kiritmasligiga bilim yetishmasligidan tashqari imtihon bosimi, vaqt tanqisligi va metodik resurslarning kamligi ham sabab bo‘lishini ko‘rsatadi. Demak, yangi yondashuvni joriy etish o‘qituvchini metodik jihatdan qo‘llab-quvvatlash bilan birga olib borilishi kerak.

Shu bilan birga, Yaponiyada RFCDC asosidagi baholashning mazmunga asoslangan ingliz tili kursi bilan uyg‘unlashtirilishi ijobiy natija bergan. Shvetsiya va Yaponiya bo‘lajak o‘qituvchilari o‘rtasidagi onlayn hamkorlik esa madaniyatlararo tajribani kasbiy tayyorgarlik bilan bog‘lash imkoniyatini ko‘rsatadi. Tayvan tajribasida Vyetnam va Indoneziya madaniyatlarining o‘quv mazmuniga kiritilishi esa madaniyatlararo ta’limni faqat G‘arb madaniyatlari bilan cheklamaslik zarurligini ko‘rsatadi.

3. Janubi-Sharqiy Osiyo tajribasi: lingua franca va raqamli imkoniyatlar. Indoneziya va Tailand tajribalarida ingliz tilining lingua franca, ya’ni turli ona tillariga ega insonlar o‘rtasidagi umumiy aloqa vositasi sifatidagi maqomiga alohida e’tibor beriladi [3]. Talabalar ingliz tilidan nafaqat ingliz yoki amerikaliklar, balki turli Osiyo va boshqa mamlakatlar vakillari bilan muloqot qilishda foydalanadi. Shu sababli ingliz tili ta’limini faqat Britaniya yoki Amerika madaniyati bilan cheklash zamonaviy kommunikativ ehtiyojlarni to‘liq qamrab olmaydi.

Indoneziyada o‘qituvchilarda MMKni rivojlantirishga qiziqish mavjud bo‘lsa-da, metodik tayyorgarlik, resurs va baholash vositalarining yetishmasligi muammo bo‘lib qolmoqda [4]. Shu bilan birga, Instagram kabi oddiy raqamli platformalardan madaniyatlararo o‘quv maydoni sifatida foydalanish tajribasi mavjud. Talabalar turli

mamlakatlarga oid materiallarni tahlil qilib, o‘z madaniyati haqida ingliz tilida kontent yaratadilar.

Tailand tajribasi onlayn ta’lim sharoitida ham MMKni bosqichma-bosqich rivojlantirish mumkinligini ko‘rsatadi. Biroq talabalar “madaniyatlararo kompetensiya”ni ba’zan oddiy odob-axloq qoidalari sifatida tushunishi aniqlangan [32]. Bu esa ta’lim jarayonini loyihalashdan avval talabalarning mazkur tushuncha haqidagi dastlabki qarashlarini aniqlash zarurligini ko‘rsatadi.

Umuman, Janubi-Sharqiy Osiyo tajribasining kuchli jihatlari real kommunikativ ehtiyoj, lingua franca yondashuvi va nisbatan sodda raqamli vositalardan foydalanish bilan bog‘liq. Zaif tomoni esa samarali tashabbuslarning ko‘pincha alohida loyiha yoki o‘qituvchi darajasida qolib ketishidir.

4. Qiyosiy natijalar. Uch hudud tajribasining tahlili MMKni shakllantirishning yagona universal modeli mavjud emasligini, biroq umumiy pedagogik tamoyillar mavjudligini ko‘rsatdi. Yevropa tajribasi aniq maqsad va baholash, Sharqiy Osiyo o‘quv dasturi, darslik va o‘qituvchi omili, Janubi-Sharqiy Osiyo esa lingua franca, real kommunikativ ehtiyoj va raqamli vositalar muhimligini ko‘rsatadi.

Shu bois O‘zbekiston oliy ta’limi uchun ushbu tajribalarning maqbul jihatlarini uyg‘unlashtirish maqsadga muvofiq. Xususan, aniq deskriptorlarga asoslangan maqsadlar, milliy va global madaniyat uyg‘unligidagi mazmun, virtual almashinuv va loyiha faoliyati, shuningdek, test bilan bir qatorda refleksiv baholash vositalaridan foydalanish MMKni rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlari sifatida qaralishi mumkin.

Muhokama. Uch hudud tajribasining qiyosiy tahlili madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini (MMK) shakllantirishning yagona universal modeli mavjud emasligini, biroq turli ta’lim tizimlarida takroran uchraydigan umumiy komponentlar borligini ko‘rsatadi. Ular, avvalo, real madaniy kontekst, autentik yoki modellashtirilgan muloqot, refleksiya, qiyosiy tahlil va tanqidiy anglash bilan bog‘liq [2; 4]. Mazkur komponentlar turli hududlarda turlicha shaklda qo‘llanilsa-da, ularning umumiy maqsadi talabani boshqa madaniyat vakillari bilan samarali muloqotga tayyorlash, madaniy farqlarni anglash va o‘z nuqtayi nazarini mos ravishda ifodalashdan iborat.

Yevropa tajribasi MMK maqsadlarini aniq va o‘lchanadigan natijalar bilan bog‘lash zarurligini ko‘rsatadi. CEFR va RFCDC kabi hujjatlar madaniyatlararo kompetensiyani mavhum tushunchadan kuzatiladigan va baholanadigan kompetensiyaga aylantirish uchun muhim metodik asos yaratadi [6; 8]. Sharqiy Osiyo tajribasi esa madaniyatlararo ta’limning samaradorligi faqat o‘quv mazmuniga bog‘liq emasligini, balki ta’lim siyosati, darsliklar, imtihon tizimi va o‘qituvchining metodik tayyorgarligi bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatadi. Janubi-Sharqiy Osiyo tajribasi esa ingliz tilining xalqaro *lingua franca* sifatidagi maqomini hisobga olish zarurligini ko‘rsatib, madaniyatlararo ta’limni faqat ingliz tilida so‘zlashuvchi mamlakatlar madaniyati bilan cheklash zamonaviy kommunikativ ehtiyojlarga to‘liq javob bermasligini namoyon etadi [3].

Ushbu tajribalar O‘zbekiston oliy ta’limi uchun ham muhim metodik xulosalar chiqarish imkonini beradi. Avvalo, madaniyatlararo maqsadlar o‘quv va ishchi dasturlarda aniq, kuzatiladigan hamda baholanadigan natijalar shaklida ifodalanishi lozim. Shu maqsadda CEFRning madaniyatlararo vositachilik deskriptorlari va RFCDC tavsiflarini milliy ta’lim sharoitiga moslashtirish mumkin [6; 8]. Bu yondashuv belgilangan maqsad bilan uni baholash o‘rtasidagi uzilishni kamaytirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, amaldagi ingliz tili darsliklarini madaniy mazmun nuqtayi nazaridan qayta ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq. Bunda milliy, maqsadli va global madaniyatlarning o‘zaro nisbati, madaniy materiallarning muvozanatli berilishi hamda topshiriqlarning yodlashdan ko‘ra qiyoslash, talqin qilish va tahlilga qay darajada yo‘naltirilgani e’tiborga olinishi kerak. Bunday qayta ko‘rib chiqish darsliklarni to‘liq almashtirishni emas, balki ularni qo‘shimcha madaniyatlararo topshiriqlar va modullar bilan boyitishni nazarda tutadi [15].

O‘zbekiston sharoitida virtual almashinuv imkoniyatlaridan foydalanish ham muhim ahamiyatga ega. Talabalarning aksariyati xalqaro tajribani bevosita xorijga chiqish orqali emas, mahalliy ta’lim muhiti orqali olishini hisobga olgan holda, onlayn qo‘shma loyihalar va virtual muloqotlar madaniyatlararo tajribani kengaytirishi mumkin [11; 12]. Bunday faoliyatni bosqichma-bosqich joriy etish, texnik imkoniyatlari cheklangan guruhlar uchun esa oflayn muqobillarni nazarda tutish zarur. Bundan tashqari, talabalarning o‘z milliy madaniyatini ingliz tilida taqdim etish va tushuntirish ko‘nikmalarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish lozim. Loyiha metodi bu borada samarali vositalardan biri bo‘lib, talabalar o‘z hududining urf-odatlari, qadriyatlari, an’analari yoki zamonaviy ijtimoiy hayoti haqida ingliz tilida material tayyorlash orqali til, madaniy va taqdimot ko‘nikmalarini birgalikda rivojlantirishlari mumkin [3; 5].

MMKni baholashda ham faqat test natijalariga tayanish yetarli emas. Portfolio, refleksiv yozuvlar, madaniyatlararo uchrashuvlar avtobiografiyasi va loyiha natijalarini baholash kabi vositalardan foydalanish talabaning nafaqat bilimini, balki munosabati, fikrlashi, madaniy hodisalarni talqin qilishi va o‘z tajribasini anglash darajasini ham aniqlash imkonini beradi [9]. Shu jihatdan baholashning an’anaviy va refleksiv shakllarini uyg‘unlashtirish MMKning murakkab tabiatini to‘liqroq aks ettiradi.

Yuqoridagi xulosalar asosida O‘zbekiston oliy ta’limi uchun aralash (integrativ) metodik modelni taklif etish mumkin. Ushbu modelda MMK maqsadlari Byram va Deardorff konsepsiyalari hamda xalqaro kompetensiya deskriptorlari asosida belgilanadi, o‘quv mazmuni CLIL va madaniyatlararo yondashuv elementlari bilan boyitiladi, ta’lim jarayoni kommunikativ va loyiha metodlariga tayanadi. Virtual almashinuv va raqamli vositalar esa talabalarga autentik madaniyatlararo muloqot uchun qo‘shimcha imkoniyat yaratadi. Baholash jarayonida test bilan bir qatorda portfolio, loyiha va refleksiv topshiriqlardan foydalanish ko‘zda tutiladi.

Mazkur modelning muhim jihatlaridan biri “yumshoq integratsiya” tamoyilidir. Bunda madaniyatlararo mazmunni o‘quv dasturiga alohida fan yoki qo‘shimcha mashg‘ulot sifatida kiritishdan ko‘ra, mavjud ingliz tili mavzulari tarkibiga izchil singdirish nazarda tutiladi. Masalan, kundalik muloqot, sayohat, ta’lim, kasb, oila yoki ijtimoiy hayotga oid mavzular madaniyatlararo vaziyatlar, qiyosiy topshiriqlar va refleksiv savollar bilan boyitilishi mumkin. Shu tariqa qo‘shimcha o‘quv soatlarini sezilarli darajada oshirmagan holda MMKni muntazam va bosqichma-bosqich rivojlantirish imkoniyati yuzaga keladi.

Xulosa. Yevropa, Sharqiy Osiyo va Janubi-Sharqiy Osiyo tajribalarining qiyosiy tahlili madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini shakllantirishning yagona va universal “retsepti” mavjud emasligini ko‘rsatdi. Shunga qaramay, samarali yondashuvlarning umumiy yadrosi mavjud bo‘lib, u jonli madaniy kontekst, real muloqot, refleksiya, qiyosiy tahlil va tanqidiy anglash kabi komponentlarni o‘z ichiga oladi [2; 4].

Yevropa tajribasi MMK maqsadlarini aniq va o‘lchanadigan shaklda belgilash, ularni deskriptorlar va baholash vositalari bilan bog‘lash zarurligini ko‘rsatadi. Sharqiy Osiyo tajribasi darslik, o‘qituvchi, o‘quv dasturi va imtihon tizimi o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni hisobga olish muhimligini namoyon etadi. Janubi-Sharqiy Osiyo tajribasi esa ingliz tilining lingua franca sifatidagi funksiyasini hisobga olish, madaniyatlararo ta’limni faqat ingliz tilida so‘zlashuvchi mamlakatlar bilan cheklamaslik hamda raqamli vositalarning sodda va iqtisodiy jihatdan maqbul shakllaridan foydalanish imkoniyatlarini ko‘rsatadi [3; 11].

O‘zbekiston oliy ta’limi uchun ushbu tajribalarni mexanik tarzda ko‘chirish emas, balki ularning samarali jihatlarini milliy ta’lim sharoitiga moslashtirish maqsadga muvofiq. Shu nuqtayi nazardan, deskriptorlarga asoslangan aniq maqsadlar, milliy va global madaniyatlar muvozanatidagi o‘quv mazmuni, kommunikativ va loyiha metodlariga tayangan darslar, virtual almashinuv imkoniyatlari hamda test va refleksiyani birlashtiruvchi baholash tizimidan iborat aralash model istiqbolli metodik yo‘nalish sifatida taklif etiladi [6; 11].

Mazkur modelni amaliyotga joriy etishdan oldin uning O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida tajriba-sinovdan o‘tkazilishi, turli yo‘nalishdagi talabalar bilan empirik tadqiqotlar tashkil etilishi va modelning qaysi komponentlari mahalliy sharoitda eng yuqori samaradorlikka ega ekanligi aniqlanishi zarur. Shu tariqa xorijiy tajribani o‘rganishdan milliy metodik modelni ilmiy asosda ishlab chiqishga o‘tish imkoniyati yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Byram, M. Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence. – Clevedon: Multilingual Matters, 1997; 2nd ed. – Bristol: Multilingual Matters, 2021.

2. Al-Afifi, M., Nygren, T., Rasmusson, M., & Tvarana, M. Intercultural competence in the classroom: A systematic review of classroom-based research on teaching and learning practices // Intercultural Education. – 2026.

3. Chen, R. T.-H. Teaching intercultural communication in an English as a lingua franca context // RELC Journal. – 2023.

4. Amalia, S. N., Ratnawati, R., Irawati, R., Virdyna, N., & Cahyono, B. Y. Intercultural communicative competence: Indonesian EFL lecturers' beliefs, classroom efforts, problems, and solutions // MEXTESOL Journal. – 2025.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori // Lex.uz.

6. Council of Europe. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment. Companion Volume. – Strasbourg: Council of Europe Publishing, 2020.

7. Deardorff, D. K. Identification and assessment of intercultural competence as a student outcome of internationalization // Journal of Studies in International Education. – 2006. – Vol. 10, No. 3.

8. Council of Europe. Reference Framework of Competences for Democratic Culture (RFCDC). Vols. 1–3. – Strasbourg: Council of Europe Publishing, 2018.

9. Byram, M., Barrett, M., Ipgrave, J., Jackson, R., & Méndez García, M. C. Autobiography of Intercultural Encounters. – Strasbourg: Council of Europe, 2009.

10. Peskoller, J. The intercultural potential of language activities: Investigating the implementation of intercultural learning in three Austrian EFL textbooks // Intercultural Communication Education. – 2025.

11. O'Dowd, R. Virtual exchange: Moving forward into the next decade // Computer Assisted Language Learning. – 2021.

12. Hauck, M., Salomão, A. C. B., Satar, M., & Primo, G. Internationalisation at home through critical virtual exchange // *AILA Review*. – 2025.

13. Krengel, F. "Glocal education" through virtual exchange? Training pre-service EFL teachers to connect their local classrooms to the world and back // Global Education Review. – 2021.

14. Gruber, A., Canto, S., & Jauregi-Ondarra, K. Exploring the use of social virtual reality for virtual exchange // *ReCALL*. – 2023.

15. Ibrahim, H. B. Implementing backward design to foster intercultural communicative competence in textbook-based curricula // Intercultural Communication Education. – 2022.

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI

2026-yil
8-son

Muassis - "FAN VA INNOVATSIYA YANGILIKLARI" MCHJ
Jurnal hamkori - «PROFI UNIVERSITY»

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024-yil 24-may kuni № 454068-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Jurnal 2024-yilda tashkil etilgan, 1 oyda bir marta o'zbek, tojik, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, rus va ingliz tillarida nashr etiladi.

Tahririyat manzili: 190110, Toshkent shahri Uchtepa tumani, Bog'iston MFY, 14-mavze, 8-uy.

Telefonlar: +998 90 749 00 00
+998 90 749 77 77
+998 91 902 05 01
E-mail: saen_2024@mail.ru
Jurnal sayti: www.saen.uz
Telegram kanali: **https://t.me/saen_2024**

Maqolada keltirilgan fakt va ma'lumotlarning to'g'riligi uchun mualliflar mas'uldirlar.

"Fan va ta'lim yangiliklari" ilmiy-amaliy jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining qarori (25.08.2025 y., №374/5) bilan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

ISSN: 3093-8694